

CHET TILI MASHG'ULOTLARIDA TA'LIM OLUVCHILARNING GAPIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA OID O'ZIGA XOS JIHATLAR

Ahmedova Jumagul Tursunovna

Xo'jaobod tumani politexnikumi

ingliz tili fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqola gapirishni nutq faoliyati turi sifatida o'rgatish masalalariga bag'ishlangan. Muallif gapirishning ko'plab olimlar tomonidan taklif etilgan tasnifi va tavsiflarini o'rganib chiqadi. Shuningdek, gapirishga o'rganish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: nutq faoliyati, gapirish, tasnif, tavsif, matn, chet tili, nemis tili, o'rgatish.

KIRISH

Ma'lumki, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Hozirgi kunda nafaqat ijtimoiy-gumanitar sohalar, balki aniq va tabiiy fanlarning rivojlanishida ham xorijiy tajribalar bilan tanishish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, chet tillarni zamon talablari asosida chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish va o'rgatish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning kelgusi faoliyatini nafaqat ona tilida, balki xorijiy tillarda ham samarali olib borish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur. Umuman olganda, maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi hamda oliy ta'limga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ta'lim oluvchilarga dastlab og'zaki nutq (tinglab tushunish va gapirish) o'rgatiladi, keyingi bosqichda esa yozma nutq (o'qish va yozish) shakllantiriladi. Albatta, og'zaki va yozma nutq faoliyati turlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni alohida o'rgatish har doim ham samarali natija bermaydi. Misol uchun, ta'lim oluvchilarga chet tilda yozish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida avvalo o'qituvchi og'zaki muloqotga o'rgatishga harakat qiladi. Keyinchalik ta'lim oluvchi o'qituvchining fikrini tinglab tushunishga va o'z fikrini oddiy gaplar orqali og'zaki bayon qilishga intiladi. Ta'lim oluvchilarda og'zaki nutq ko'nikmalari shakllangandan so'ng esa keyingi bosqich – o'qish va yozuvga o'rgatiladi.

Mazkur maqolada chet tili mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning gapirish ko'nikmalarini shakllantirishga oid o'ziga xos jihatlar tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida nutq faoliyati turlari xorijiy va mahalliy metodist olimlar – V.A. Artemov, B.V. Belyaev, L.S. Vigotskiy, I.A. Zimnyaya, N.I. Gez, J.J. Jalolov, Z.I. Klichnikova, A.P. Sokolov, Ye.I. Passov, A.A.

Leontev, A.A. Mirol'yubov, S.K. Folomkina, P.M. Frumkina, S.F. Shatilov, E.G. Azimov, A.N. Shukin, O'. Hoshimov, I. Yoqubov, Sh. Ataev va boshqalar tomonidan atroflicha o'rganilganligi aniqlandi.

Shu o'rinda, J. Jalolovning fikriga ko'ra, gapirish – biror fikrni izhor etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va talaffuz hodisalarini qo'llashdan iborat. Shuningdek, gapirish deganda fikrni og'zaki bayon etish tushuniladi. Chet tillarni o'qitish metodikasida gapirish nutq faoliyati turi sifatida asosan XX-asrning 60-yillarida atroflicha tadqiq etila boshlandi.

Umuman olganda, "Nutq muloqot jarayoni emas, gapirish ham emas. Nutq – gapirish yanglig' faoliyat chog'ida fikrni ro'yobga chiqarish va ifodalash usulidir". Shuningdek, muloqot jarayonida notiq tomonidan qo'llaniladigan til birliklari tinglovchiga mos kelsa, tushunish jarayoni osonlashadi. Notiq qay darajada tinglab tushunish ko'nikmasiga ega bo'lsa, gapirish jarayoni ham shuncha oson kechadi.

TADQIQOT METODOLOGI YASI

Ushbu maqolada mavzuni yoritishda xorijiy va mahalliy olimlarning chet til o'qitish metodikasiga oid tadqiqot ishlaridan foydalanilgan. Maqolada umumilmiy metodlardan deduktiv va induktiv hamda chet til o'qitish metodikasining maxsus metodlari qo'llanilgan. Nutq faoliyati turlaridan gapirishning muloqotdagi funksiyalari va ularning chet til mashg'ulotlarida qo'llanishining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim oluvchi mashg'ulotlarda dastlab mavzuni ilg'ashga va uning doirasida mavjud bilimlarni yodga olishga harakat qiladi, keyinchalik esa o'z fikrini jamlashga harakat qiladi va o'rganilayotgan tildagi leksik va grammatik birliklardan foydalangan holda muloqotga kirishadi, ya'ni chet tilda muloqot qila boshlaydi.

Chet til o'qitish metodikasida gapirish bir qancha vazifalarni amalga oshiradi. Birinchidan, interaktivlik: gapirish odatda ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida bo'ladi. Bu jarayonda biror fikr yoki ma'lumotni yetkazish, so'rovlar o'tkazish va javoblar almashish, shuningdek, izohlar berish mumkin. Ikkinchidan, tezkorlik: gapirishda ma'lumotni tez va qisqa vaqt ichida yetkazish zarurati bor. Odatda gapirishda to'xtalishlar kam bo'ladi, chunki so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida muloqot bo'ladi. Uchinchidan, muloqot jarayonida erkinlik: gapirishda, yozishga nisbatan, ko'proq erkinlik va ifoda tarzining xilma-xilligi mavjud. G'oyalar tezda o'zgartirilishi yoki moslashtirilishi mumkin. To'rtinchidan, tinglash va tushunish: gapirishda nafaqat yaxshi notiq bo'lish, balki yaxshi tinglovchi bo'lish maqsadga muvofiq. Gapiruvchi boshqa odamlarning fikrini tushunib, unga mos ravishda javob bera olishi kerak. Beshinchidan, jismoniy ifodalar: gapirishda talaffuz qilingan so'zlar, ularning intonatsiyasi va noverbal harakatlar (mimikalar, qo'l harakatlari) orqali qo'shimcha ma'lumotlar beriladi. Bu unsurlar muloqot jarayonini boyitadi va tushunishni

osonlashtiradi. Nihoyat, so'nggisi – ovoz va intonatsiya: gapirishda ovoz balandligi, ohang va intonatsiya muloqotning samaradorligiga ta'sir qiladi. Ovoz yordamida his-tuyg'ular va muhim fikrlar ifodalashi mumkin. Albatta, bularning barchasi xorijiy tilni amaliy egallashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu kabi xususiyatlar gapirishni yozishdan farqlaydi va bu jarayonda muloqot samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Til o'rganuvchilar ta'limning dastlabki bosqichida muloqotga kirishishda "Salomlashish va hayrlashish"ga oid so'z va iboralarni o'rgana boshlaydilar. Chet tillarni o'rganish jarayonida o'quvchilar ma'lum bir mavzuga oid leksikani o'zlashtiradi, ya'ni ularda og'zaki nutq shakllana boshlaydi. Leksikani o'rganishdan keyingi bosqich – bu grammatik qoidalar bo'lib, hozirgi zamonda gap tuzish, ya'ni ta'lim oluvchilar o'rganilayotgan tilda yozish va o'qishni o'rgana boshlaydilar. Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rgatishda gapirish nutq faoliyat turini takomillashtirishga qaratilgan samarali metod va mashqlar mavjud. Shunday mashqlar sirasiga o'rganilayotgan tilda so'z boyligini oshirish yoki mavzuga oid leksikani o'rganish maqsadga muvofiq. Tilni turli iboralar va maqollar orqali o'rganish hamda gapirishga o'rgatish samarali usul hisoblanadi. Har kuni yangi so'zlar yoki iboralarni o'rganish va ularni muloqot jarayonida qo'llash o'rganilayotgan tilda so'z boyligini oshirishga yordam beradi hamda erkin muloqot qilishga zamin yaratadi. Shuningdek, suhbat davomida bir fikrni yoki mazmunni boshqa so'z yoki so'zlar bilan almashtirish imkonini beradi. Shuningdek, chet tilida fikrni tez va aniq ifodalashga mo'ljallangan mashqlar ham mavjud bo'lib, ular tala-balar gapirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi va qisqa vaqt ichida biror mavzuda fikrni ifodalash imkonini beradi. Masalan, so'zni bir daqiqada tugatish mashqi orqali muhokama qilinayotgan mavzuda fikr bildirish. Bu mashq tezlik va aniqlikni rivojlantirib, bayon qilinishi rejalashtirilayotgan fikrni ifodalashda taym-menejment, ya'ni til sohibi bilan muloqotda vaqtni boshqarish hamda qisqa vaqt mobaynida o'z fikrini muloqotdoshga yetkazish imkonini beradi. gapirish jarayonida yozuvdagi nutq faoliyatidan farqli ravishda bayon qilingan fikrni tahrir qilish imkoniyati bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida gapirishda katta mas'uliyatni talab qiladi. O'quvchilarga chet tilida gapirishni o'rgatish oraliq amaliy maqsad sanaladi. Ya'ni, ta'limning dastlabki bir necha (taxminan, uch) yili davomida ular gapirish va tinglab tushunishni (og'zaki nutqni) o'rganishadi, o'qish va yozuv esa o'qitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yuqori sinflarda o'qish va tinglab tushunish (retseptiv nutq) asosiy maqsad maqomini egallaganda, gapirish o'qitish vositasiga aylanadi. Demak, gapirish uch vazifani bajaradi: aloqa vositasi, o'qitish vositasi va o'qitishning amaliy maqsadi (tinglab tushunish va o'qish ham yuqori sinflarda shunday mavqega ega bo'ladi). Yozuv esa mustaqil maqsad emas, balki vosita vazifasini bajaradi. Chet tilida gapirish uch qismdan iborat nutqiy faoliyatdir. Dastlab, gapirishga moyillik (motivatsiya) bo'lishi zarur. Ushbu til vositasida fikr

aytish ehtiyoji tug'iladi. Gapirishning ushbu qismida aytish niyati (intentsiya) paydo bo'ladi, xolos.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim oluvchilarga yuqori sifatli ta'lim berish, xorijiy tajribani o'z ichiga olgan zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalarni qo'llash hamda ularni kreativ fikrlashga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, chet tili mashg'ulotlarida turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilishni o'rganish, o'rganilayotgan til madaniyatiga xos urf-odatlar va qadriyatlarni o'zlashtirish ushbu tilni chuqur tushunishga olib keladi. Ta'lim oluvchilarda bu tushunchalarni shakllantirish natijasida ularning xalqaro maydonda muvaffaqiyatli muloqot qila olishlari uchun zamin yaratiladi. O'z o'rnida, og'zaki nutq faoliyat turi chet tili o'qitish metodikasida katta ahamiyatga ega bo'lib, til sohibi bilan muloqotda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. – М.: Просвещение, 1985. – 160 с.
2. Методика обучения иностранным языкам в средней школе / Г.В.Рогова, Ф.М.Рабинович, Т.Е.Сахарова. – М.: Просвещение, 1991. – 287 с.
3. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2012. – 430 b.
4. Passov E.I. Коммуникативное иноязычное образование: концепция и технология. – М.: Русский язык, 1991. – 240 с.
5. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – 112 p.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 270 p.
7. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Longman, 2007. – 446 p.
8. Савельева И.С. Методика обучения устной речи в иностранном языке. – СПб.: КАРО, 2010. – 198 с.
9. Вятютнев М.Н. Развитие речевых навыков в процессе обучения иностранному языку. – М.: Высшая школа, 1996. – 256 с.